

MILLIY SUG'URTA BOZORI IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISHDA SUG'URTA INSTITUTLARINING ROLINI OSHIRISH

INCREASING THE ROLE OF INSURANCE INSTITUTIONS IN EXPANDING THE CAPABILITIES OF THE NATIONAL INSURANCE MARKET

**¹Sherov Sanjar
Radjabovich**

¹PhD, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi. E-mail: sherovsr@mail.ru

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Maqolada milliy sug'urta bozorining barqaror rivojlanishida sug'urta institutlarining moliyaviy barqarorligi va institutsional salohiyati o'rganiladi. Shuningdek, O'zbekiston sug'urta bozorining rivojlanish tendensiyalari, shu jumladan sug'urta kompaniyalari soni, ustav kapitali, sug'urta mukofotlari hajmidagi o'zgarishlar tahlil qilinadi. Maqolada milliy sug'urta bozorini rivojlantirish va uning imkoniyatlarini kengaytirish borasida sug'urta institutlarining rolini oshirishning asosiy yo'nalishlari ishlab chiqiladi, jumladan, yangi sug'urta mahsulotlarini yaratish, xodimlar malakasini oshirish, normativ-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, xorijiy tajribalarni joriy etish va mijozlarni ta'lim berish orqali ularning xabardorligini oshirish masalalari muhokama qilinadi.

Eng. - The article studies the financial stability and institutional capacity of insurance institutions in the sustainable development of the national insurance market. It also analyzes the development trends of the insurance market of Uzbekistan, including changes in the number of insurance companies, authorized capital, and the volume of insurance premiums. The article develops the main directions for increasing the role of insurance institutions in the development of the national insurance market and expanding its capabilities, including the creation of new insurance products, staff training, improving regulatory and legal mechanisms, introducing foreign experience, and raising awareness of clients through education.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ sug'urta, sug'urta bozori, moliyaviy barqarorlik, risklarni boshqarish, kapitallashuv, ixtiyoriy sug'urta, majburiy sug'urta, raqamli texnologiyalar.

❖ insurance, insurance market, financial stability, risk management, capitalization, voluntary insurance, mandatory insurance, digital technologies.

Kirish.

Hozirgi global iqtisodiy beqarorlik sharoitida sug'urta institutining ahamiyati turli mulkchilik shakllarida faoliyat yurituvchi xo'jalik subyektlari uchun tobora ortib bormoqda. OECD Global Insurance Market Trends 2025 hisobotiga ko'ra, 2024-yilda OECD

davlatlarida sug'urta xizmatlarining yalpi ichki mahsulotga nisbati 6,2 foizni tashkil etgan [12]. O'zbekistonda esa ushbu ko'rsatkich atigi 0,7 foizga teng bo'lib [11], bu milliy sug'urta bozorining iqtisodiyotdagi ishtiroki hali yetarli darajada shakllanmaganini ko'rsatadi.

Mazkur holat mamlakatimizda sug'urta institutlarining rolini kuchaytirish, sug'urta xizmatlari qamrovini kengaytirish hamda ularning iqtisodiy o'sishdagi ahamiyatini oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu bilan birga, sug'urtaning milliy moliya tizimidagi muhim institut sifatida yetarli darajada baholanmayotgani, sug'urta kompaniyalari faoliyatida yuqori risklar va moliyaviy beqarorlikning saqlanib qolayotgani milliy sug'urta bozorini chuqur isloh qilishni taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, milliy sug'urta bozori imkoniyatlarini kengaytirish, institutsional islohotlarni jadallashtirish, innovatsion sug'urta mahsulotlarini joriy etish hamda aholining sug'urta madaniyatini oshirish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy masala sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda sug'urta institutlarining iqtisodiy rivojlanishdagi roli keng yoritilgan. Jumladan, P. Skipper va K. Klein sug'urta tizimini moliya sektorining barqarorligini ta'minlovchi muhim institut sifatida baholab, sug'urta bozorining chuqurlashuvi investitsion faollikni oshirish va iqtisodiy risklarni diversifikatsiya qilishga xizmat qilishini ta'kidlaydi [1]. Ularning fikricha, rivojlangan sug'urta bozori moliyaviy resurslarning qayta taqsimlanishida muhim mexanizm hisoblanadi.

M. Arena o'z tadqiqotlarida sug'urta bozori rivoji va iqtisodiy o'sish o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjudligini empirik tahlillar asosida isbotlagan. Muallif sug'urta institutlari orqali risklarning kamayishi tadbirkorlik faolligini rag'batlantirib, milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga xizmat qilishini qayd etadi [2]. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda sug'urta institutlarining institutsional mustahkamlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

H. Ward va R. Zurbrugg sug'urta bozorining moliya tizimi bilan o'zaro integratsiyasini tahlil qilib, sug'urta kompaniyalarining kapitallashuv darajasi va

moliyaviy barqarorligi milliy sug'urta bozorining imkoniyatlarini kengaytirishda hal qiluvchi omil ekanini asoslaydi [3]. Ularning fikricha, sug'urta institutlari uzoq muddatli investitsiyalar uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

J. Outreville sug'urta institutlarini institutsional iqtisodiyot nuqtayi nazaridan tahlil qilib, huquqiy muhit, moliyaviy infratuzilma va aholining sug'urta madaniyati sug'urta bozorining rivojlanish darajasini belgilovchi asosiy omillar ekanini ko'rsatadi [4]. Muallif sug'urta xizmatlari qamrovini kengaytirishda davlat va xususiy sektor hamkorligining ahamiyatini alohida ta'kidlaydi.

Swiss Re Institute ekspertlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sug'urta va qayta sug'urtalash institutlarining global risklarni boshqarishdagi roli ochib berilgan [5]. Ularning xulosalariga ko'ra, milliy sug'urta bozori imkoniyatlarini kengaytirish uchun innovatsion sug'urta mahsulotlari va raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Mahalliy olimlar tomonidan ham sug'urta bozorini rivojlantirish masalalari o'rganilgan. Xususan, Sh. Abdullayev sug'urta institutlarini milliy moliya tizimining ajralmas qismi sifatida baholab, sug'urta kompaniyalari faoliyatini takomillashtirish iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qilishini ta'kidlaydi [6]. Uning fikricha, sug'urta bozorining rivoji real sektorni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi.

B. Xodjayev sug'urta bozorining institutsional rivojlanishiga e'tibor qaratib, sug'urta institutlarining kapitallashuvi va moliyaviy barqarorligi milliy sug'urta bozori imkoniyatlarini kengaytirishning asosiy sharti ekanini qayd etadi [7]. Muallif sug'urta faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini asoslab beradi.

I. Ergashev o'z ilmiy ishlarida sug'urta xizmatlari bozorining iqtisodiy o'sishga ta'sirini tahlil qilib, sug'urta institutlari orqali

risklarni kamaytirish investitsiya muhitini yaxshilashini ko'rsatadi [8]. U sug'urta mahsulotlarini diversifikatsiya qilish va aholining sug'urta madaniyatini oshirish muhimligini ta'kidlaydi.

N. Yusupov sug'urta va qayta sug'urtalash institutlarining o'zaro bog'liqligini tahlil qilib, qayta sug'urtalash mexanizmlarini rivojlantirish milliy sug'urta bozorining moliyaviy barqarorligini oshirishini asoslaydi [9]. Uning fikricha, xalqaro qayta sug'urtalash bozorlariga integratsiya milliy sug'urta institutlari imkoniyatlarini kengaytiradi.

D.A. Raxmonov sug'urta bozorini raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalalarini o'rganib, sug'urta institutlarining samaradorligini oshirish orqali milliy sug'urta bozori salohiyatini kengaytirish mumkinligini ta'kidlaydi [10]. Muallif sug'urta xizmatlarining ochiqligi va shaffofligini oshirish ahamiyatini alohida ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida deduktiv va induktiv metodlar, shuningdek, mantiqiy va qiyosiy tahlil, tarixiy yondashuv, statistik usullar hamda sistemali tahlil metodlari keng qo'llanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mavjud iqtisodiy noaniqliklar va risklarning kuchayib borishi sharoitida sug'urta kompaniyalarining iqtisodiy, xususan moliyaviy xavfsizligini ta'minlash milliy sug'urta bozorini barqaror rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Shu bois, sug'urta institutlari faoliyatida risklarni samarali boshqarishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish, ilg'or boshqaruv mexanizmlarini joriy etish hamda institutsional salohiyatni mustahkamlash dolzarb vazifaga aylanmoqda. Sug'urta xizmatlari bozori o'ziga xos ikki tomonlama funksional xususiyatga ega bo'lib, bir tomondan, sug'urta tizimi iqtisodiy xavfsizlik va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga


qaratilgan institutsional mexanizm sifatida faoliyat yuritadi, ikkinchi tomondan, u iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarda risklarni kamaytirish orqali mikro va makro darajada iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlovchi muhim moliyaviy institut sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, sug'urta faoliyatida mulkiy xavfsizlikni ta'minlash, axborot resurslarini himoya qilish, tashqi hamkorlar bilan munosabatlarda ishonchlilikni oshirish, mijozlar bilan ishlash jarayonida firibgarlik va moliyaviy suiiste'mollarning oldini olish hamda shartnomaviy majburiyatlarning bajarilishini kafolatlash sug'urta institutlari faoliyatining ustuvor yo'nalishlari sifatida qaralishi lozim.

Sug'urta xizmatlari bozorining tahlili shuni ko'rsatadiki, unga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi ko'plab tashqi omillar, jumladan, makroiqtisodiy beqarorlik, moliyaviy bozorlar kon'yunkturasi, normativ-huquqiy muhitdagi o'zgarishlar hamda global risklar sug'urta kompaniyalari boshqaruv tizimi doirasidan tashqarida shakllanadi. Shu sababli, milliy sug'urta bozori imkoniyatlarini kengaytirishda sug'urta institutlarining moslashuvchanligini oshirish, o'zgaruvchan tashqi muhitga tezkor javob bera oladigan moslashuvchan boshqaruv modellarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Sug'urta bozorining rivojlanish jarayoni uning tsiklik xususiyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, mazkur tsikliklik an'anaviy iqtisodiy tsikllardan sug'urta xizmatlarining o'ziga xos jihatlari, xususan, andarrayting siyosati, risklarni baholash mexanizmlari va sug'urta kompaniyalarining kapitallashuv darajasi bilan farqlanadi. Ushbu omillar sug'urta institutlarining moliyaviy barqarorligi va bozor salohiyatining kengayishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Sug'urta tariflari dinamikasi sug'urta sikllarining shakllanishi va rivojlanish xarakterini belgilovchi asosiy omillardan biri bo'lib, andarrayting foydasi sug'urta bozoridagi tsiklik o'zgarishlarning muhim indikator sifatida namoyon bo'ladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, sug'urta bozorida "past" va

“yuqori” tsikl fazalari mavjud bo‘lib, turli sug‘urta turlari (mulk, hayotni sug‘urtalash, fuqarolik javobgarligi va boshqa yo‘nalishlar) bo‘yicha ushbu tsikllar bir vaqtda mos kelmasligi mumkin. Quyidagi 1-rasm sug‘urta

bozorining tsiklik rivojlanishini aks ettirib, unda anderryayting foydasi va sug‘urta tariflari dinamikasi asosida “past” va “yuqori” tsikl fazalarining almashinuvi tasvirlangan.



1-rasm. Sug‘urta bozorida “past” va “yuqori” tsikl fazalarining dinamik modeli

Sug‘urta kompaniyalari faoliyatining ayrim yo‘nalishlari turli sikl bosqichlarida rivojlanadi. Past sikl fazasida yuzaga keladigan salbiy tendensiyalar, rentabellikning pasayishi va moliyaviy xavf-xatarlarning kuchayishi aksiyadorlar tomonidan kompaniya menejmentidan strategik qarorlarni qayta ko‘rib chiqishni, biznes-modelni transformatsiya qilishni hamda risklarni boshqarish tizimini takomillashtirishni talab etadi. Bu esa sug‘urta institutlarining bozor imkoniyatlarini kengaytirish va ularning iqtisodiyotdagi rolini oshirish uchun muhim shart hisoblanadi. So‘nggi yillarda mamlakatimiz sug‘urta bozorining rivojlanish tendensiyalari sug‘urta institutlarining institutsional mustahkamlanishi, kapitallashuv darajasining oshishi hamda bozor infratuzilmasining bosqichma-bosqich takomillashuvi bilan tavsiflanmoqda. Xususan, sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini kuchaytirishga qaratilgan

normativ-huquqiy islohotlar, minimal ustav kapitali talablarining oshirilishi va prudensial nazorat mexanizmlarining joriy etilishi sug‘urta faoliyatida risklarni boshqarish sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, sug‘urta xizmatlari assortimentining kengayishi, raqamli texnologiyalar asosida masofaviy sug‘urta mahsulotlarining joriy etilishi hamda mijozlarga xizmat ko‘rsatish jarayonlarining avtomatlashtirilishi sug‘urta bozorining raqobatbardoshligini oshirishga imkon bermoqda. Mazkur jarayonlar sug‘urta institutlarining iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirish, real sektor va aholi uchun moliyaviy himoya darajasini oshirish hamda milliy sug‘urta bozori imkoniyatlarini kengaytirishning muhim omillari sifatida namoyon bo‘lmoqda. Quyidagi 1-jadvalda O‘zbekiston sug‘urta bozorining rivojlanish tendensiyalari aks ettirilgan.

1-jadval

2021-2025-yillarda O'zbekistonda sug'urta bozori institutsional tuzilmasining rivojlanish dinamikasi [11]

Ko'rsatkichlar	31.12.2021	31.12.2022	31.12.2023	31.12.2024	01.10.2025
<i>Sug'urta tashkilotlari soni</i>	42	41	38	33	35
<i>shu jumladan hayot sug'urtasi bo'yicha</i>	8	8	7	5	6
<i>Sug'urta tashkilotlarining umumiy ustav kapitali (mln. so'mda)</i>	1 589 808	1 884 111	2 298 572	2963695	3624046
<i>Sug'urta brokerlari soni</i>	5	7	8	11	11
<i>Aktuariylar soni</i>	5	5	5	5	7
<i>Sug'urta agentlari soni</i>	9581	9 155	4 736	4804	3527
<i>shu jumladan yuridik shaxslar</i>	2 871	2 625	1 711	1704	1453
<i>To'lovlarni kafolatlash jamg'armasi a'zosi bo'lgan sug'urta tashkilotlari soni</i>	23	25	26	25	25


Jadval ma'lumotlari O'zbekistonda sug'urta bozorining institutsional tarkibida so'nggi yillarda sezilarli tarkibiy o'zgarishlar yuz berayotganini ko'rsatadi. Xususan, 2021-2024-yillar davomida sug'urta tashkilotlari sonining 42 tadan 33 tagacha qisqarishi kuzatilgan bo'lsa-da, 2025-yil 1-oktabr holatiga kelib ularning soni 35 taga yetgani bozorning barqarorlashuv tendensiyasidan dalolat beradi. Hayotni sug'urtalash sohasida faoliyat yurituvchi tashkilotlar sonining kamayishi ushbu yo'nalishda kapitallashuv va prudensial talablarning kuchaygani bilan izohlanadi.

Sug'urta institutlarining iqtisodiyotdagi rolini oshirishda ularning moliyaviy salohiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, sug'urta tashkilotlarining umumiy ustav kapitali 2021-yildagi 1 589 808 mln. so'mdan 2025-yilga kelib 3 624 046 mln. so'mgacha oshgan. Mazkur o'sish sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, risklarni qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirish hamda yirik sug'urta majburiyatlarini bajarish salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, sug'urta brokerlari va aktuariylar sonining ko'payishi bozor infratuzilmasining rivojlanayotganini hamda sug'urta faoliyatida

professional xizmatlarga bo'lgan talabning ortib borayotganini ko'rsatadi.

Biroq sug'urta agentlari sonining keskin kamayishi sug'urta xizmatlarini an'anaviy tarqatish kanallarining transformatsiya qilinayotganligidan dalolat beradi. Bu holat sug'urta bozorida raqamli texnologiyalar asosida masofaviy savdo kanallarining rivojlanishi va xizmat ko'rsatish modellari yangilanayotgani bilan izohlanadi. To'lovlarni kafolatlash jamg'armasi a'zosi bo'lgan sug'urta tashkilotlari sonining barqaror saqlanib qolishi esa sug'urta institutlariga bo'lgan ishonchni oshirish va sug'urtalanuvchilarning manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, mazkur tendensiyalar sug'urta institutlarining milliy sug'urta bozori imkoniyatlarini kengaytirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va iqtisodiy o'sishdagi rolini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Mazkur institutsional va texnologik o'zgarishlar sug'urta xizmatlari hajmi va tarkibida ham muayyan ijobiy siljishlarga olib kelmoqda. Xususan, majburiy va ixtiyoriy sug'urta bo'yicha yig'ilgan sug'urta mukofotlari dinamikasi milliy sug'urta bozorining kengayib borayotganini hamda sug'urta institutlarining iqtisodiyotdagi rolini bosqichma-bosqich kuchayib borayotganini yaqqol namoyon etadi (2-rasm).



2-rasm. O'zbekistonda majburiy va ixtiyoriy sug'urta bo'yicha sug'urta mukofotlari hajmi dinamikasi (mlrd. so'mda) [11]

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, 2021-2024-yillar davomida sug'urta mukofotlarining umumiy hajmi 3 732,8 mlrd. so'mdan 9 770,0 mlrd so'mgacha oshib, deyarli 2,6 baravarga ko'paygan. Ushbu o'sishda asosiy ulush ixtiyoriy sug'urta hissasiga to'g'ri kelib, mazkur segment bo'yicha mukofotlar hajmi 2021-yildagi 3 230,5 mlrd. so'mdan 2024-yilda 9 057,1 mlrd. so'mgacha yetgan. Bu holat sug'urta bozorida ixtiyoriy sug'urta mahsulotlariga bo'lgan talabning ortib borayotganini, aholining sug'urta madaniyati va moliyaviy ong darajasi oshib borayotganini ko'rsatadi.

Majburiy sug'urta bo'yicha mukofotlar hajmi nisbatan barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, 2021-2024-yillarda 502,3 mlrd. so'mdan 712,9 mlrd. so'mgacha ko'tarilgan. 2025-yil 1-oktabr holatiga majburiy sug'urta hajmining biroz qisqarishi qayd etilgan bo'lsa-da, ixtiyoriy sug'urta segmentidagi o'sish umumiy sug'urta mukofotlari hajmining oshishini ta'minlagan. Umuman olganda, mazkur tendensiyalar sug'urta institutlarining milliy sug'urta bozori imkoniyatlarini kengaytirish, moliyaviy resurslarni safarbar etish va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashdagi rolini kuchayib borayotganidan dalolat beradi.

Yuqorida tahlil qilingan tendensiyalar milliy sug'urta bozorida sug'urta

institutlarining roli tobora kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Xususan, ixtiyoriy sug'urta segmentining jadal rivojlanishi sug'urta kompaniyalarining bozor talablariga moslashish qobiliyati oshib borayotganidan, innovatsion sug'urta mahsulotlari va moslashuvchan tarif siyosati orqali aholining keng qatlamlarini qamrab olish imkoniyatlari kengayayotganidan dalolat beradi. Bu esa sug'urta institutlarining nafaqat moliyaviy himoya mexanizmi, balki iqtisodiy faollikni rag'batlantiruvchi muhim institut sifatida shakllanib borayotganini anglatadi.

Shu bilan birga, sug'urta bozorida institutsional mustahkamlanish, kapitallashuv darajasining oshishi va infratuzilmaning rivojlanishi sug'urta institutlarining risklarni qabul qilish va boshqarish salohiyatini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, masofaviy savdo kanallari va avtomatlashtirilgan xizmat ko'rsatish modellarining rivojlanishi sug'urta xizmatlari qamrovini hududiy va ijtimoiy jihatdan kengaytirishga xizmat qilmoqda. Natijada sug'urta institutlari real sektor subyektlari va aholi uchun moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi ishonchli mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda.

Umuman olganda, sug'urta institutlarining funksional imkoniyatlarini kengaytirish, ularning bozor infratuzilmasidagi

rolini kuchaytirish hamda innovatsion rivojlanish strategiyalarini izchil amalga oshirish milliy sug'urta bozorining salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish imkonini beradi. Bu jarayon sug'urta tizimining iqtisodiy o'sish, investitsion muhitni yaxshilash va ijtimoiy xavfsizlikni mustahkamlashdagi ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar.

Sug'urta bozorida institutsional mustahkamlanish, kapitallashuv darajasining oshishi va masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali xizmatlar qamrovi kengayishi sug'urta institutlarining real sektor va aholi uchun moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi muhim institut sifatida shakllanishiga yordam beradi. Natijada, sug'urta tizimi nafaqat moliyaviy himoya mexanizmi, balki iqtisodiy o'sish, investitsion muhitni yaxshilash va ijtimoiy xavfsizlikni mustahkamlashda markaziy rol o'ynaydigan strategik institutga aylanishi mumkin.

Mavjud tahlillar shuni ko'rsatadiki, milliy sug'urta bozorining barqaror rivojlanishi sug'urta institutlarining moliyaviy barqarorligi, kapitallashuv darajasi va institutsional salohiyatiga bevosita bog'liqdir. Sug'urta kompaniyalarining risklarni boshqarish tizimlarini takomillashtirish, normativ-huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish bozor infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ixtiyoriy sug'urta segmentining jadal o'sishi va yangi innovatsion mahsulotlarning ishlab chiqilishi aholining sug'urta xizmatlaridan foydalanishini kengaytiradi hamda sug'urta institutlarining iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlardagi rolini mustahkamlaydi. Shuningdek, milliy sug'urta bozorini rivojlantirish va uning imkoniyatlarini kengaytirish borasida sug'urta institutlarining rolini kuchaytirish quyidagi asosiy yo'nalishlarda islohotlarni talab qiladi:

1. Yangi segmentlarga yo'naltirilgan sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish. Sug'urta

kompaniyalari kichik tadbirkorlik, qishloq xo'jaligi, avtomobil sug'urtasi, shuningdek, sog'liqni sug'urtalash kabi istiqbolli bozor segmentlariga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqishi zarur. Bu esa nafaqat bozorni diversifikatsiya qilish, balki aholining sug'urta xizmatlariga bo'lgan qamrovini kengaytirishga xizmat qiladi.

2. Xodimlar malakasini oshirish va xizmat sifatini yaxshilash. Sug'urta xodimlarini muntazam tayyorlash, sertifikatlash va xalqaro tajribalarni o'rganish orqali xizmat sifatini oshirish muhim hisoblanadi. Shu orqali sug'urta institutlari mijozlarga yanada professional va ishonchli xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

3. Preferensial soliq va rag'bat tizimlarini joriy etish. Hukumat va moliya institutlari bilan hamkorlikda sug'urta mahsulotlarini rivojlantirishni rag'batlantiruvchi preferensial soliq va moliyaviy stimullar tizimini yaratish bozorni barqarorlashtirish va sug'urta xizmatlaridan foydalanishni kengaytirishga yordam beradi.

4. Xorijiy sug'urta institutlari bilan strategik hamkorliklarni rivojlantirish. Xorijiy tajriba va innovatsiyalarni o'zlashtirish hamda strategik hamkorliklarni rivojlantirish orqali milliy sug'urta bozori raqobatbardosh va zamonaviy xizmat ko'rsatish tizimiga ega bo'ladi.

5. Mijozlarni sug'urta bo'yicha xabardor qilish va ta'lim berish. Sug'urta mahsulotlarining afzalliklarini keng targ'ib qilish, vebinarlar, seminarlar va boshqa ta'lim dasturlari orqali mijozlarni xabardor qilish bozor ishtirokchilarining ishonchini oshiradi va sug'urta xizmatlaridan foydalanishni rag'batlantiradi.

6. Ijtimoiy mas'uliyat loyihalarida faol ishtirok. Mahalliy sug'urta institutlarining ijtimoiy mas'uliyat loyihalarida faol ishtirok etishi nafaqat ularning obro'sini oshiradi, balki sug'urta sohasining jamiyat hayotidagi ahamiyatini kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Skipper H.D., Klein R. *Insurance Regulation in the United States*. – Washington: AEI-Brookings Joint Center, 2000. – 280 p.
2. Arena M. Does insurance market activity promote economic growth? // *Journal of Risk and Insurance*. – 2008. – Vol. 75, No. 4. – P. 921-946.
3. Ward D., Zurbrugg R. Does insurance promote economic growth? // *Journal of Risk and Insurance*. – 2000. – Vol. 67, No. 4. – P. 489-506.
4. Outreville J.F. *Theory and Practice of Insurance*. – Boston: Springer, 2013. – 350 p.
5. Swiss Re Institute. *World Insurance: Riding Out the 2024-2025 Volatility*. – Zurich: Swiss Re, 2025. – 120 p.
6. Abdullayev Sh.X. *Sug'urta ishi va uni tashkil etish*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018. – 240 b.
7. Xodjayev B.Yu. *Sug'urta bozori va uning rivojlanish mexanizmlari*. – Toshkent: Fan, 2019. – 200 b.
8. Ergashev I.T. *Sug'urta xizmatlari bozorining iqtisodiy o'sishga ta'siri* // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. – 2020. – №3. – 45-52 b.
9. Yusupov N.K. *Qayta sug'urtalash institutlarining moliyaviy barqarorlikdagi o'rni* // *Moliya va bank ishi*. – 2021. – №2. – 33-40 b.
10. Raxmonov D.A. *Sug'urta sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish istiqbollari* // *Iqtisodiy tadqiqotlar*. – 2022. – №4. – 58-65 b.
11. <https://napp.uz> - O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining rasmiy veb sahifasi
12. *OECD Global Insurance Market Trends 2025*.